



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



CONSTITUTIONAL REFORMS AND FUNCTIONAL DESCRIPTION OF CONSTITUTIONAL LEGISLATION

Jasurbek Azamov

Associate Professor, PhD

Kokand State Pedagogical Institute

Kokand, Uzbekistan

E-mail: jasurazamov@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: constitution, constitutional law, methodology, "function", political parties, youth political culture, modernization of society, democracy, political system, globalization.

Received: 26.12.24

Accepted: 28.12.24

Published: 30.12.24

Abstract: This article provides a functional description of the constitution, the constitutional legal system, as well as reforms aimed at their modernization. The specific functions of constitutional culture, their development, components of political culture, the role of globalization processes in political culture, in particular, in ensuring political stability between citizens, nations, peoples and states, are revealed. It is stated that special attention should be paid to the development of constitutional law in the minds of today's youth as the foundation of the country's future.

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR VA KONSTITUTSIYAVIY QONUNCHILIKNING FUNKSIONAL TAVSIFI

Jasurbek Azamov

dotsenti, PhD

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Qo'qon, O'zbekiston

E-mail: jasurazamov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: konstitusiyani, konstitusiyaviy qonunchilik, metodologiyasi, "funksiya", siyosiy partiylar, yoshlar siyosiy madaniyati, jamiyatni modernizatsiyalash, demokratiya, siyosiy tizim, globallashuv.

Annotatsiya: Mazkur maqola konstitusiyani, konstitusiyaviy qonunchilik tizimini shuningdek, ularni modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan islohotlarni funksional tavsiflash mumkin va lozim. Konstitutsiyaviy madaniyatning o'ziga xos funksiyalari, ularning rivojlanishi, siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlari, glaballashuv jarayonlarining

siyosiy madaniyatga, xususan fuqarolar, millatlar, xalqlar va davlatlar o‘rtasida siyosiy barqarorlikni ta’minlashda siyosiy madaniyatning tutgan o‘rni ochib berilgan. Konstitusiyaviy qonunchilik bugungi yoshlar ongida rivojlantirishga alohida e’tibor berilishi mamlakat kelajagini poydevori ekanligi ta’riflangan.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ РЕФОРМЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ ОПИСАНИЕ КОНСТИТУЦИОННОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Джасурбек Азамов

Доцент, PhD

Кокандского государственного педагогического института

Коканд, Узбекистан

E-mail: jasurazamov@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: конституция, конституционное право, методология, «функция», политические партии, политическая культура молодежи, модернизация общества, демократия, политическая система, глобализация.

Аннотация: В статье дается функциональная характеристика конституции, конституционно-правовой системы, а также реформ, направленных на их модернизацию. Раскрываются специфические функции конституционной культуры, их развитие, компоненты политической культуры, роль глобализационных процессов в политической культуре, в частности, в обеспечении политической стабильности между гражданами, нациями, народами и государствами. Указывается, что особое внимание следует уделять развитию конституционного права в сознании современной молодежи как фундамента будущего страны.

Ilmiy bilish metodologiyasining muhim talab (uslub) laridan yana biri – bu atrof – muhit, jamiyatdagi, tabiatdagи hamda tafakkur jarayonlaridagi voqeliklarni funksional tahlil etishdir. Shunga ko‘ra, Konstitusiyani, konstitusiyaviy qonunchilik tizimini, shuningdek, ularni modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan islohotlarni funksional tavsiflash mumkin va lozim. Buning boisi Konstitusiya ham, konstitusiyaviy qonunchilik tizimi ham muayyan dinamizm bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, ular jamiyat va davlat hayotida muayyan ijtimoiy vazifani, ya’ni tegishli funksiyalarni bajaradi. Ana shu funksional harakatlanishning tabiatini, xususiyatlarini ochish, samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash biz o‘rganayotgan voqeliklarni yanada natijali tahlil etishning jiddiy garovidir.

Hozirgi davrda “funksiya” fenomeniga falsafaning (metodologyaning) fundamental kategoriyalaridan biri sifatida fanning turli sohalarida funksional tadqiqot metodini qo‘llash,

joriy etishga qiziqish ortib bormoqda. Mashhur faylasuf Kassirerning fikricha, o'rganiladigan obyektlar o'rtasidagi munosabatlarni, ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish (funksiyalari) qator obyektlarning biridan ikkinchisiga o'zaro o'tish qonuniyatlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgandir.

Funksional yondashuv asosida ijtioiy fanlarda, ayniqsa muayyan sistemalarni (masalan, qonunchilik tizimini) o'rganishda asoslilik, muvofiqlik, ishonchlilik, funksional tarzda o'z fikr – mulohazalarini bildirish va tushuntirish kabi muammolar tadqiq etiladi.

Funksional yondashuv vositasida Konstitusiya, konstitusiyaviy qonunchilik tizimining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni, ahamiyati va tartibga soluvchi rolini mufassal yoritish mumkin. Shu jihatdan olganda, konstitusiyaviy qoida, norma va prinsiplarning funksional xususiyat hamda qirralarini ochishga erishish mumkin. Masalan, u yoki bu konstitusiyaviy institutning, prinsip yoxud normaning ma'nosini va mazmunini nafaqat Konstitusiyani (loyihasini) tayyorlash va qabul qilish bilan bog'liq tarixiy hujjatlar o'rganishi orqali, balki ular bajaradigan ijtimoiy vazifa, missiyaning funksional tahlili orqali aniqlanadi. Funksional usul – qonun normalari (moddalari) tatbiq etiladigan shart-sharoit, vaziyat va omillarga asoslanib qilinadigan tahlildir.

Demak, funksional yondashuv nuqtai nazaridan ta'kidlash mumkinki, Konstitusianing eng umumiyligi va asosiy ijtimoiy vazifasi jamiyatda tartib, barqarorlik o'rnatish, barcha ijtimoiy munospbatlar uchun, avvalo, hokimiyat munosabatlari uchun qonuniy (huquqiy) asos yaratishdan iborat. Odatda, konstitusiyalar xalqlar, millatlarning alohida davlat bo'lib uyushganligini qonunlashtirishga xizmat qiladi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining 1992 yilgi Konstitutsiyasi ham dunyo xaritasida "O'zbekiston" deb atalgan yangi mustaqil davlatning qaror topganligini, u adolatli fuqarolik jamiyatni va huquqiy demokratik davlat barpo etishni maqsad qilib qo'yganligini mustahkamladi.

Konstitusiya quyidagi muhim *funksiyalarni* bajaradi:

Konstitusianing eng muhim funksiyalaridan biri davlatchilik rivojlanishidagi vorislikni ta'min etishdir. Anglosakson mamlakatlarida bu ancha aniq ibora – "kontinuitet" – ya'ni davlat hokimiyatining uzluksizligi, davomiyligi, vorisligi degan tushuncha orqali ifoda etiladi. Bu bilan konstitusiya davlatchilikning qat'iy zaminga egaligini hamda o'zgarmasligini anglatadi.

Ushbu funksiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'zining tasdig'ini topgan. Jumladan, Konstitusianing muqaddimasida Asosiy qonunni yaratishda o'zbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanilganligi ta'kidlangan.

Konstitusianing siyosiy, yuridik, tarbiyaviy-mafkuraviy funksiyalarini bajarishi adabiyotlarda keng e'tirof etilgan.

Siyosiy funksiya. Konstitusiya jamiyat siyosiy tizimining huquqiy asoslarni mustahkamlaydi. Ma'lumki, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy-siyosiy harakatlar siyosiy munosabatlar ishtirokchisi sifatida davlat hokimiyati bilan muayyan munosabatda bo'ladilar. Konstitusiya ana shu munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, ularni huquqiy tartibga soluvchi vosita vazifasini bajaradi.

Siyosiy partiyalar va siyosiy tizimning boshqa subyektlari konstitusiyaviy qoidalar asosida davlat hokimiyati uchun kurash olib boradilar. Masalan, O'zbekistonidagi siyosiy partiyalar mamlakat Konstitutsiyasi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun va boshqa qonunlar asosida hamda parlament demokratiyasi tamoyillari doirasida o'z dastur va nizomlarida belgilangan maqsad va vazifalarni ado etish uchun kurashadilar. Ular o'z siyosiy mafkuralarini davlat mafkurasi sifatida o'rnatishlari mumkin emas (Konstitutsiyaning 12-moddasi), Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O'zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas (10-modda), konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi siyosiy partiyalarning tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi (57-modda).

Konstitutsiya, shuningdek saylovlar va referendum kabi bevosita demokratiya institutlarini mustahkamlash orqali jamiyatda siyosiy barqarorlikni, fuqarolararo totuvlik, hamjihatlik va tinchlikni ta'minlaydi, ijtimoiy-siyosiy qatlamlar va guruhlar o'rtasidagi kuchlar nisbatini muvozanatga keltirib turadi.

Davlat yuritadigan ichki va tashqi siyosatning asoslari va barcha muhim yo'nalishlari ham konstitusiyada aks etadi hamda unga tayangan holda amalga oshiriladi.

Yuridik funksiY. Konstitusiya, avvalo, yuridik mazmun va mohiyatga ega bo'lgan hujjatdir. U davlatning Asosiy qonuni sifatida butun huquqiy va qonunchilik tizimlarining o'zagini tashkil etadi, huquqiy tizim harakatlanishining ustuvor prinsiplarini belgilaydi. Shu sababli barcha qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar konstitusiyaga muvofiq chiqarilishi lozim bo'ladi.

Konstitusiya jamiyat va davlat hayotining, davlat idoralari tashkil etilishi va faoliyatining asosiy huquqiy prinsiplarini mustahkamlaydi. U huquqni ijod etuvchi davlat idoralari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ish tartibi, prinsiplari va yo'nalishlarini belgilab beradi. Jamiyatdagi bugungi huquqiy hayot va yuridik amaliyat, shu jumladan, odil sudlov amaliyoti konstitusiyaviy qoidalar asosida shakllanadi.

Tarbiyaviy-mafkuraviy funksiy. Konstitusiya jamiyat dunyoqarashi, ijtimoiy ongi va madaniyatining mahsulidir. Unda jamiyat taraqqiyotiga turtki beruvchi, muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiluvchi g'oyalar o'z ifodasini topadi. Tarixan eng birinchi vujudga kelgan

konstitusiyalardan tortib to hozir amalda bo‘lgan konstitusiyalargacha – barchasi muayyan g‘oyalarga tayanadi, xususan, erkinlik, ozodlik, xalq suvereniteti, inson haq-huquqlari, ijtimoiy adolat, tenglik kabi g‘oyalarni, mafkuraviy qarashlarni qonunlashtirishga xizmat qiladi. Ushbu umuminsoniy g‘oyaviy-ma’naviy qadriyatlar har bir mamlakat xalqining milliy, tarixiy qadriyatları bilan qo‘silib, alohida davlat konstitutsiyasining mazmuniga singib ketadi. Konstitusiyada mujassamlashgan mafkura jamiyatni, xalqni muayyan maqsadlar sari yetaklaydi, ularni uddalash uchun safarbar etadi.

Konstitusiyani har qanday mafkuradan xoli hisoblash unchalik to‘g‘ri emas. Unda jamiyat siyosiy-huquqiy mafkurasining mohiyati ifodalanadi.

Bugungi O‘zbekiston Konstitutsiyasi istiqlol g‘oyasi va mustaqillik mafkurasining huquqiy asosini tashkil etishi shubhasiz. Konstitusiyamiz xalqimizning istiqlolga, erkinlikka bo‘lgan intilishini, milliy axloqiy-ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Ayni vaqtda, u xalqning demokratiya va inson huquqlari g‘oyalariga, adolatli davlatchilik an'analariga sodiqligini ifodalaydi.

Eng muhimi, Konstitusiyamizning barcha qoidalari, butun ichki mafkuraviy salohiyati yagona ustuvor g‘oyalarni: – O‘zbekistonning davlat suverenitetini ta’minalash, yurtimizda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurish, inson huquqlarini ta’minalash g‘oyalarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgandir. Shunday mafkuraviy zamin asosida Konstitusiyamiz quyidagi muhim maqsadlarni ko‘zlaydi:

- 1) xalqimiz uchun munosib hayot sharoiti yaratish;
- 2) ijtimoiy adolat mezonlarini qaror toptirish;
- 3) milliy qadriyatlarimiz va madaniyatimizni qayta tiklash;
- 4) shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minalash.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi demokratik jamiyatning asosiy talablariga monand ravishda quyidagi muhim xususiyatlar bilan xarakterlanadi.

Konstitusiya demokratik rivojlanishga xizmat qiluvchi Asosiy Qonundir. U inson manfaatlariga yo‘naltirilgan. Unda “fuqaro – jamiyat – davlat” o‘rtasidagi munosabatlarning oqilona huquqiy yechimi belgilab berilgan. Konstitusiyada fuqarolar manfaatining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Inson, uning hayoti, erki, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquq hamda erkinliklari muqaddas bo‘lib, davlat himoyasidadir. Konstitusianing 2-moddasida “Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirlar”, deyilgan.

O‘zbekiston fuqarolari millati, irqi, diniy e’tiqodi va boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar teng huquqlarga ega. Konstitusiya O‘zbekiston fuqarosi deb hisoblangan barcha insonlar hurmat

qilinishini huquqiy jihatdan kafolatlaydi. O‘zbekiston fuqarolari mamlakat ichkarisida ham, undan tashqarida ham davlat himoyasida bo‘ladilar.

Asosiy Qonunda Konstitusiya va qonunning ustuvorligini ta’minlash mustahkamlangan. Ya’ni, barcha joriy qonunlar va huquqiy hujjatlar Konstitusiya asosida, unga muvofiq qabul qilinishi, qonun oldida hammaning barobar ekanligi belgilab qo‘yilgan. Mamlakatda biror-bir fuqaro, davlat organi, jamoat birlashmasi, mansabdar shaxs qonunga bo‘ysunish majburiyatidan ozod qilinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘zining ilk Konstitutsiyasida inson huquqlarini himoyalash va kafolatlash, huquqiy davlat va fuqaroviylar jamiyat qurish manfaatlari mos qonun-qoidalar, omillarni belgiladi.

Xo‘sh, mamlakatimizning konstitusiyaviy tuzumi qanday, u nimalarni, qanday tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi? O‘zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi juda ko‘p ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi. Shuning uchun ko‘p tartib-qoidalarni o‘z ichiga olib, ular faqat bitta huquq tarmog‘i bilan emas, balki O‘zbekiston Respublikasining huquq tizimidagi bir necha huquq tarmoqlari, sohalari bilan mustahkamlanadi. Konstitusiyaviy tuzumni mustahkamlaydigan huquq tarmoqlari ichida asosiy o‘rinni konstitusiyaviy huquq tarmog‘ining normalari egallaydi. Buning asosiy sabablari quyidagilardir:

- konstitusiyaviy huquq konstitusiyaviy tuzum asoslarini mustahkamlashi;
- konstitusiya normalarining boshqa huquq normalariga nisbatan ustun ekanligi;
- konstitusiya amaldagi qonunchilikning yuridik asosini, negizini tashkil qilishi va boshqa huquq tarmoqlarining asosiy manbai ekanligi.

Konstitusiyaviy tuzum asoslarini belgilovchi konstitusiyaviy normalar ayrim belgilar va xususiyatlari bilan Konstitusiyada mustahkamlangan boshqa normalardan ajralib turadi. Bu belgilar va xususiyatlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1) bu konstitusiyaviy normalar jamiyatimizdagи ijtimoiy munosabatlarning eng asosiylarini huquqiy tarzda mustahkamlaydi, tartibga soladi, ma’lum maqsadga yo‘naltiradi va shu bilan jamiyatdagи ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalariga huquqiy ta’sir etishning tub mazmunini belgilaydi;

2) ushbu konstitusiyaviy normalarning huquqiy muhofazalanishiga Konstitusiyada alohida ahamiyat berilgan. Konstitusiyaviy tuzumni zaiflashtirishga, uning barqarorligida putur yetkazishga, obro‘sini to‘kishga qaratilgan har qanday urinish suveren respublikamiz mohiyatiga zid keladi. Konstitusiya mavjud tuzumga qarshi qaratilgan harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Konstitusiya konstitusiyaviy tuzumni o‘zgartirish uchun kuch ishlashni maqsad qilib qo‘ygan siyosiy partiyalar, shuningdek boshqa ijtimoiy birlashmalar tashkil qilinishini va ularning faoliyatini taqiqlaydi. Fuqarolar Konstitusiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning

huquqlari erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar (Konstitusianing 48-moddasi);

3) konstitusiyaviy tuzum o‘z mazmuniga ko‘ra, asosan norma-prinsip, norma-ta’rif, norma-maqsadlardan tashkil topadi;

4) konstitusiyaviy tuzum normalarini ko‘pincha konstitusiyaviy shaklda yoki yangi konstitusiya qabul qilinganda o‘zgartirish mumkin;

5) konstitusiyaviy tuzum asoslari o‘zida mujassamlashtirilgan maqsadlarni amaliy va huquqiy jihatdan amalga oshirishga butun O‘zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining safarbar etilishini nazarda tutadi;

6) konstitusiyaviy tuzum asoslarini belgilovchi huquqiy normalar o‘z maqsadlariga ko‘ra konstitusiyaviy huquqning boshqa institutlari uchun ham belgilovchi va yo‘naltiruvchi ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Konstitusiyamiz milliy tiklanish jarayonlarining murakkab tub islohiytadrijiy bosqichlarining yaxlit huquqiy poydevoriga aylanganini mamlakatimizning o‘ttiz to‘rt yillik rivojlanish yo‘li tasdiqlab turibdi.

Qonunchilik tizimining mohiyati va ijtimoiy vazifasi uning funksiyalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. ***Qonunchilik tizimi funksiyalari*** – ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta’sir etishning asosiyo‘nalishlari bo‘lib, ularning mazmuni qonunchilik tizimining mohiyati va jamiyat hayotidagi ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi. Qonunchilik tizimi, avvalo, jamiyat hayotining turli jabhalariga – iqtisodiyotga, siyosatga, ijtimoiy sohaga, madaniy-ma’naviy munosabatlarga tartibga soluvchi ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy mazmundagi umumijtimoiy funksiyalarini bajaradi.

Biz qonunchilik tizimining funksional jihatlari borasida tadqiqot olib borgan yosh olim Y.f.n. Xoziakbar Odilqoriyevning quyidagi mulohazalarini qo‘llab-quvvatlaymiz:

Qonunchilik tizimi funksiyalari quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

birinchidan, qonunchilik tizimi funksiyalari Konstitusiya va qonunchilikning mohiyatidan kelib chiqadi va uning jamiyatdagi vazifasi bilan belgilanadi;

ikkinchidan, qonunchilik tizimi funksiyalari – ijtimoiy munosabatlarga huquqiy ta’sir etishning shunday yo‘nalishlariki, ularni amalga oshirish ehtiyoji qonunchilikning ijtimoiy hodisa sifatida mavjud bo‘lishi zaruriyatidan kelib chiqadi;

uchinchidan, funksiyalar qonunchilik tizimining eng muhim, jiddiy sifatlarini ifoda etadi va jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida qonunchilik oldida turgan tub vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi;

to‘rtinchidan, qonunchilik tizimi funksiyalari uning ijtimoiy munosabatlar muayyan turini tartibga soluvchi faol harakatining yo‘nalishini aks ettiradi. Shu sababli, qonunchilik tizimi

funksiyalarining muhim belgilaridan biri uning dinamizmi, faol harakatlanishi va regulyativ ta'sir etishidir;

beshinchidan, qonunchilik tizimi funksiyalari ijtimoiy hayotda uzviy davom etish xususiyatiga ega, bu ularning izchilligi, uzuksizligi, barqaror harakatlanishini bildiradi.

Qonunchilik tizimi funksiyalarini huquq funksiyalari singari ikki turga ajratish mumkin: *regulyativ* (tartibga soluvchi) va *negativ* (qo‘riqlovchi) funksiyalar.

Shunday qilib, tadqiqot mavzusini bilsh metodologiyasining tizimli-strukiurali, tarixiy, mantiqiy, qiyosiy, funksional yondashuv metodlari asosida o‘rganish uning mohiyati, yuridik tabiatni va boshqa hususiyatlarini ilmiylik asosida o‘rganish, uni kopleks yoritish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Фалсафа қомусий луғат (Тузувчи ва масъул мухаррир К.Назаров. – Т., 2004, 436-бет.
2. Маматов X. Конституциявий ҳуқуқ. – Т., 2018, 51-58-бет
3. Қаюмов Р.Қ. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва конституциявий тузум. Конституция ва фуқаролик жамиятини шакллантиришнинг долзарб муаммолари. ИИВ Академияси. Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Т., 2003. 28 – 30-бетлар.
4. Одилқориев X.X. Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик тизими. – Т., 2008. – 38 – бет.